
QUTLOV



Qutlov

Tumanimizning aziz va munis onaxonlari, dilbar opa-singillariyu go'zal qizlari! Barchangizga nafis bahor, muhabbat, go'zallik, latofat va mehr ramzi bo'lgan 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami muborak bo'lsin!

Odatda ayolni bahorga, bahorni esa ayolga qiyoslashadi. Zotan o'lkamiz uzra muattar sepini yoya boshlagan bahorning ilk kunlari aynan xotin-qizlar bayrami bilan boshlanishi ham ramziy ma'no kasb etadi. Ayoli bor oila qut-barakali, fayzli va tarovatli bo'ladi. Yurtimiz ham, jamiyatimiz ham ayol bilan go'zaldir.

O'zbekistonimiz turmush tarzining osudaligi, baxt-saodatli va totuvligi, olib borilayotgan har bir bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarida ayollarimizning aql-zakovati, o'tkir zehni mujassam ekanligini quvonch bilan ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Demak, biz barchamiz hamisha el-yurt ardog'idamiz.

Aziz va muxtarama opa-singillar!

Barchangizni yer kurramizda keng miqyosda nishonlanib kelinayotgan 8 - mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan samimiy qutlab, Sizlarga sihat-salomatlik, oilalaringizda to'kin-sochinlik, baxt-saodat, shodu-hurramlik, sharaflil ishlaringizda yangidan-yangi zafarlar tilayman.

AYOLLIK BAXTI, BEKALIK TAXTI, ONALIK MARTABASI SIZLARGA HAMISHA HAMROH BO'LSIN!

Hurmat bilan, So'x tumani IIB JXX HPB HQMB katta inspektori podpolkovnik, Shahnoza SHODMONOVA

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-03-08 11:56:13